

## UCHINCHI ODAM — ELNI BOG'LOVCHI VA CHALG'ITUVCHI KUCH

*Jo'ranazarova Nigora Qurbonboy qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Eshmurodova O'g'ilshod Siddiq qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Uchinchi odam" she'rining tahlil(vositachilik fenomeni orqali vijdon, adolat, haqiqat va axloqiy mas'uliyat kabi dolzarb tushunchalar)ini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** uchinchi odam ,vositachi, A.Oripov, Nasriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy,Odam Ato, Momo Havo," Qissasi ar-Rabg'uziy",salbiy,vijdon,adolat.

**Annotation:** "This article highlights the analysis of Abdulla Oripov's poem 'The Third Man' (through the phenomenon of mediation, concepts such as conscience, justice, truth, and moral responsibility are explored)."

**Keyword:** Third person, mediator, A. Oripov, Nasiruddin Burhoniddin o'g'li Rabguzi, Adam, Eve, "The Story of ar-Rabguzi", negative, conscience, justice.

**Аннотация:** "В данной статье раскрывается анализ стихотворения Абдуллы Орипова «Третий человек» (через феномен посредничества освещаются такие актуальные понятия, как совесть, справедливость, истина и моральная ответственность)."

**Ключевое слово:** Третье лицо, посредник, А. Орипов, Насируддин Бурхониддин оглу Рабгузи, Адам, Ева, «История ар-Рабгузи», негатив, совесть, справедливость.

She'r (arabcha: shuur– sezgi) – fikrning his-tuyg'uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she'riy nutq bilan ifoda etilgan, ma'lum ichki ohangga ega badiiy asar. „She'r“ atamasi o'rniga ba'zan „nazm“ so'zi ham qo'llanadi. U badiiy adabiyotning qadimiy turi bo'lib, insoniyat eng birinchi badiiy asarlarni shahrida yaratgan. Rivoyat qilishlaricha, birinchi shahrini bevaqt o'ldirilgan o'g'li Hobilning dardida kuygan Odam alayhissalom yaratgan ekan. Shuning uchun ham unda, deyarli hamisha, muallifning oniy kayfiyati, lahzalik porloq kechinmalari ustuvorlik qiladi. Shahrida fikrning kutilmagan va sezimlarga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yo'sinda ifodalanishiga e'tibor qilinadi. Shu bois ham har bir shahridan o'ta muhim ijtimoiy g'oya ifodasini kutish maqsadga muvofiq emas. Ularda tuyg'ular po'rtanasi qudratli, sezimlar miqyosi keng va ta'sirchanlik, yuqumlilik darajasi yuqori bo'lishi muhimdir.

Shahrining uzoq yashashini ta'minlaydigan asosiy omillar: tuyg'ular samimiyati va ifoda tabiiyligidir.<sup>1</sup>

Abdulla Oripov she'riyati o'zbek adabiyoti rivojida yangi bosqichni boshlab bergan, unda so'zning badiiy obraz yaratishdagi funksiyasi alohida e'tiborga sazovordir. Shoir she'rlarida so'z faqat ma'noni ifodalovchi vosita emas, balki ichki ma'no qatlamlarini ochuvchi badiiy tasvir vositasidir. Abdulla Oripov so'zga badiiy vosita sifatida yondashib, undagi har bir tovush, ohang va ritmni aniqlik bilan ishlatadi. Uning she'rlarida so'zlarning mantiqiy psixologik ta'siri kuchli bo'lib, ular orqali shoir o'quvchini she'riy tasavvur va hissiyot dunyosiga olib kiradi. Shoir she'rlarida oddiy so'zlarning ma'no jihatidan boyishi, ko'chma ma'no kasb etishi kuzatiladi.<sup>2</sup>

Buyuk o'zbek shoiri Abdulla Oripov o'zining "Uchinchi odam" she'rida insoniyat hayotining muhim jihatlarini, odamlar orasidagi vositachilik va adolatni chuqur falsafiy ohangda tasvirlaydi. Shoir har bir to'rtlik orqali uchinchi odam timsolining turli qirralarini ochib beradi.

Insonlar bir-birin yursa ardoqlab,  
O'rtada vosita asli ziyoda.  
Har ikki Odamni turguvchi bog'lab -  
Uchinchi Odam bor lekin dunyoda.

She'rning birinchi bandidayoq muallif insonlar orasidagi munosabat mustahkam bo'lishi uchun ular bir-birini ardoqlab yashashi kerakligini aytadi. Ammo bu munosabatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ularni bog'lab turuvchi vosita bor — "uchinchi odam". U odamlar orasida mehr, tushunish va birligini ta'minlaydi. Demak, jamiyat barqarorligi va insoniy qadriyatlar davomiyligi aynan uchinchi odam kabi vositachilar tufayli yuz beradi.

Uchinchi Odam bu — o'zi bir xilqat,  
O'shadir dunyoga ilk qo'ygan qadam.  
Ikkovlon o'ljani keltirgan fursat,  
O'choqqa o't yoqqan uchinchi Odam.

Bu to'rtlikda uchinchi odam hayotdagi dastlabki harakatni boshlagan zot sifatida ko'rsatiladi. Shoir uni dunyoga birinchi qadam qo'ygan, o'choqqa o't yoqqan, jamiyat taraqqiyotini boshlagan shaxs sifatida tasvirlaydi. U — yaratuvchanlik va hayot ramzi.

Bir qarashda bu to'rtlikni Nosiruddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning "Qissasi ar-Rabg'uziy" asaridagi Odam safiy alayhissalom — Odam Ato va Odam Ato qissasi rivoyatining mazmuni yoritilgan to'rtlikdir desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

"...Darhaqiqat, baloning eng qattig'i payg'ambarlarga keladi, undan so'ng avliyolarga, undan so'ng tartib bilan. Iblis jannatdan quvilgach vasvasa bilan Odam Ato bilan Momo Havoni ujmoqdan chiqarmoqni istadi. U paytlarda ilon tevadek katta,

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/She%CA%BCr>

<sup>2</sup> <https://interoncof.com/index.php/india/article/download/6983/6315/12314>

qanotlari turfa rangda tovlanadigan nihoyatda go‘zal edi. Iblis undan “Meni jannatga olib kir”, deb so‘radi. U unamadi. Iblis “og‘zingni och” dedi. Og‘zini ochganida tilining tagiga kirib oldi. Ilon bo‘lib, Odam Atoga so‘zladi. U tinglamadi. Ayol kishining ko‘ngli yumshoq bo‘ladi deb, Momo Havoga so‘zladi. “Mavlo Taolo bug‘doyni nima uchun yema deganini bilmaysan?” deb so‘radi. “Yo‘q”. –dedi. “Uni yegan kishi ujmoxda mangu qolur” dedi. Havo butoqdan yedi. Odam Atoni ham yeyishga da‘vat etdi. Odam Ato u soatda ahdini unutdi. Bug‘doyni chaynadi, yutadigan paytda Yaratgan egamning buyrug‘i yodiga tushdi. Yutgisi kelmadi. Chiqarib tashlayolmadi. Shu-shu eranlarda (erkak kishilar)ning tomog‘ida yumg‘oq(hiqildoq) bor, tishlarda (ayollarda) esa yo‘q. Shundan keyin toj boshlaridan tushdi.”<sup>3</sup>

Ya‘niki jannatdan birinchi quvilgan(O‘shadir dunyoga ilk qo‘ygan qadam)va Odam Ato va Momo Havoni yolg‘on gaplariga ishontirib,do‘zah olovining alanga olishiga sababchi bo‘lgan shayton (O‘choqqa o‘t yoqqan uchinchi Odam ya‘ni iblis )ni uchinchi vositachi timsolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Payg‘ambar shaklida u sohib qutqu  
Bandaga xudoni dalolat etgan.  
Ne o‘jar shohlardan elchi bo‘lib u  
Goho bosh keltirgan, goh boshi ketgan.

Shoir ushbu to‘rtlikda uchinchi odamni ruhiy-ma‘naviy yetakchi sifatida tasvirlaydi. U Payg‘ambarlar kabi insonlarga Xudoni tanitgan, haqiqatni ko‘rsatgan. U shohlar oldida elchi bo‘lib xizmat qilgan va bu yo‘lda jonidan kechgan inson deb ta‘riflanadi va bu orqali uchinchi odam fidoyilik va jasorat namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

Muhabbat bobida u-ku bir mahram,  
Uningsiz visol ham yo‘qdir aslida.  
Shoirning yor uchun bitgan satrin ham  
Yod olgan o‘shadir — she‘rxon shaklida.

Shoir muhabbat bobida ham uchinchi odamning roli muhimligini ta‘kidlaydi. Muhabbat, visol va yaqinlikni ta‘minlash uchun ham vositachi kerak. Hatto shoirning sevgililar uchun yozgan satrlarini yod olib, ularga yetkazuvchi — uchinchi odamdir. U muhabbat rishtalarining yashab qolishiga xizmat qiladi.

Uning bir unvoni hakamdir azal,  
Shunchalar muhtaram uchinchi bu zot.  
Toki bu olamda mehr notugal,  
Men faqat o‘shandan qo‘rqaman, hayhot!

<sup>3</sup> gujum.uzhttps://gujum.uzQisasi ar-Rabg‘uziy - Odam Ato va Momo Havo qissasi

Shoir uchinchi odamni adolatni ta'minlovchi hakam sifatida ulug'laydi. Lekin adolatsizlikka yuz tutsa, u dunyo uchun katta xavf tug'dirishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Demak, uchinchi odamning vijdonli bo'lishi hayotdagi eng asosiy shartdir.

Axir u emasmi do'stni g'anim-u  
G'animni do'st qilib qo'yg'uvchi odam.

Magar u beshafqat boshlasa g'ulu,  
Dunyoga g'avg'olar solgay chinakam

Bu to'rtlikda shoir uchinchi odamning salbiy qirrasini ochadi. Agar u yolg'on va fitnani tanlasa, do'stni dushmanga, dushmani do'stga aylantirishi mumkin. Bu esa dunyoda katta g'avg'olar va notinchliklar keltirib chiqarishi haqida aytadi.

Ro'yonni rost desa, mittini kabir,  
Janubni Sharq desa aylab imolar,  
Kufarli dunyoda oz emas, axir,  
O'shaning izmidan yurgan siymolar.

Shoir haqiqatni buzadigan, rostni yolg'onga, kichikni katta qilib ko'rsatadigan odamlarning ko'pligidan afsuslanadi. Uchinchi odamning salbiy qiyofasi — haqiqatni yashirib, jamiyatni chalg'ituvchi obraz sifatida aks ettiriladi.

Uchinchi bu odam tirikdir toki,  
Dunyoning chayqalib turmog'i ayon.  
Serg'alva asrda bu zot hattoki  
Saltanat shaklida bo'lar namoyon.

Bu yerda uchinchi odam shunchaki shaxs emas, balki hokimiyat, davlat, butun bir tizim sifatida tasvirlanadi. U tirik ekan, dunyoda notinchlik va o'zgarishlar doimo davom etadi. Saltanatlar ham uchinchi odamning aksidir.

Olamda, aslida, bordir do'st va yov!  
Orzum shul: pokiza ko'rsam vijdonni.  
Kimsaning nomidan kimsaga birov  
Sotib yubormasa, deyman, imonni.

Shoir pokiza vijdon va sodiqlikni orzu qiladi. Dunyoda do'st ham, dushman ham mavjud, lekin insonlar bir-birining ishonchini, imonini sotmasligi kerakligini ham tilaydi. Bu orzu orqali shoir insoniylik va halollikni ulug'laydi.

Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat,  
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.  
U - menmi, u - senmi, kim bo'lma, faqat  
Senga insof bersin, uchinchi odam!

She'r yakunida shoir o'zining samimiy murojaatini bildiradi. Har bir inson o'zini uchinchi odam sifatida ko'rishi mumkinligini aytadi. Muhimi, vijdonli bo'lish, insofli bo'lish. Shoir bizni o'z vijdonimizni sof saqlashga chaqiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, buyuk o‘zbek shoiri Abdulla Oripov o‘zining “Uchinchi odam” she‘rida insoniyat hayotining muhim jihatlarini, odamlar orasidagi vositachilik va adolatni chuqur falsafiy ohangda tasvirleydi. Shoir har bir to‘rtlik orqali uchinchi odam timsolining turli qirralarini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda har bir inson hayotida sodir bo‘lyotgan hodisalarning hammasi Allohning ishi ekanligini ta’kidlamochi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/She%CA%BCr>
2. <https://interoncof.com/index.php/india/article/download/6983/6315/12314>
3. [gujum.uz](https://gujum.uz) <https://gujum.uz> Qisasi ar-Rabg‘uziy - Odam Ato va Momo Havo qissasi
4. Izzat Sultonning Adabiyot nazariyasi (Toshkent, O‘qituvchi, 2005)
5. Fitratning Adabiyot qoidalari (Toshkent, Fan, 1967)
6. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.